



Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI



17.2.5 - Sizing universitetingiz tashkilot sifatida NNTlar bilan BRMlarni hal qilishda hamkorlik qiladimi?



26-29 may kunlari o‘tkaziladigan “Barqaror rivojlanishda fundamental fanlar Xalqaro yili” (YUNESKO) doirasida “Kimyo-barqaror rivojlanish uchun” xalqaro ilmiy haftaligi start oldi.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Xalqaro tashkilotlar bilan o‘tkazilayotgan navbatdagi hamkorlik, instituti tarixida ilk bor keng masshtabdagi va ko‘plab xorijiy mehmonlar tashrif buyurayotganligi bilan yodda qolmoqda. 26-29 may kunlari “Barqaror rivojlanishda fundamental fanlar Xalqaro yili” (YUNESKO) doirasida “Kimyo-barqaror rivojlanish uchun” xalqaro ilmiy haftaligi bo‘lib o‘tadi. Haftalik doirasida

- “Shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi;
- “Yosh kimyogarlarning tanlovi” respublika kimyo olimpiadasi;
- “Yosh olimlar” xalqaro forumi;
- Kimyogor olimlar ishtirokida seminarlar, Master klasslar bo‘lib o‘tadi.

Ilmiy haftalikka 50 ga yaqin xalqaro mehmonlar tashrif buyurishdi. 26-may kuni Ilmiy haftalik doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Uzkimyosanoat” AJ, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi bilan hamkorlikda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan e‘lon qilingan “Xalqaro shisha yili” doirasida “Shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi start oldi. 2021-yil 18-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi BMTning 75/279-sonli rezolyutsiyasini qabul qilib, 2022-yilni “Xalqaro shisha yili” deb e‘lon qilib, “jamiyatimizdagi oynaning rolini yoritish” va shisha kabi texnologiyalar qanday hissa qo‘shishini ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi “Shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi BMT tomonidan e‘lon qilingan va IYOG- 2022 xalqaro tadbirlar ro‘yxatiga kiritilgan IYOG-2022 xalqaro shisha yili doirasida tashkil etilmoqda.

Xalqaro konferensiyaga 500 ga yaqin ilmiy maqola va ishlanmalar kelib tushdi. Xalqaro eksportlar guruhi tomonidan 450 ga yaqin maqolalar tanlab olinib, chop etildi. Konferensiyaga AQSh, Italiya, Ispaniya, Polsha, Armaniston, J.Koreya, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston kabi 30 dan xorijiy davlatdan ilmiy maqolalar kelib tushdi. Bugun o‘tkazilayotgan konferensiyada Birlashgan millatlar tashkiloti vakillari, 50 ga yaqin xorijiy mehmonlar jumladan Rossiya, Belorussiya, Italiyadan tashrif buyurgan professorlar, ishlab chiqarish vakillari ishtirok etishdi. Bundan tashqari Toshkent kimyo-texnologiya institutida tashkil etilgan Kuzatuv kengashi a‘zolari, hamkor tashkilot vakillari, ishlab chiqarish vakillari bevosita va onlayn tarzda ishtirok etishmoqda.

Xalqaro ilmiy-texnik anjumandan ko‘zlangan maqsad silikat materiallari, shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini jahon hamjamiyatini O‘zbekiston shisha sanoati yutuqlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.



Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti





Toshkent
kimyo-texnologiya
institutini



26-29-may - "Kimyo-barqaror rivojlanish uchun" xalqaro ilmiy-texnikaviy haftaligi

26-27-may Xalqaro shisha yili doirasida "Shisha, keramika va bog'lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari" xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiyasi



City Palace Hotel Tashkent, A.Temur ko'chasi 15 uy

27-may Maktab o'quvchilari o'rtasida "Yosh kimyogarlar tanlovi" - Respublika kimyo olimpiadasi



D.I.Mendeleev nomidagi RKTuning Toshkent shahridagi filiali, M.Ulug'bek tumani, TTZ-4, 47-uy

28-29-may "Yosh olimlar" xalqaro forumi, Kimyogar olimlar ishtirokida seminarlar, Master klasslar



Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Chimyon shaharchasi - Shafran" sanatoriy majmuasida



			39 Y Yttrium Transition Metal	8 O Oxygen Nonmetal	38 Sr Strontium Alkaline Earth Metal	1 H Hydrogen Nonmetal						
19 K Potassium Alkali Metal	53 I Iodine Halogen	12 Mg Magnesium Alkaline Earth Metal	70 Yb Ytterbium Lanthanide	76 Os Osmium Transition Metal	52 Ge Germanium Metalloid	79 Au Gold Transition Metal	86 Rn Radon Noble Gas	3 Li Lithium Alkali Metal	89 Ac Actinium Actinide	75 Rh Rhenium Transition Metal		
		22 Ti Titanium Transition Metal	89 Ac Actinium Actinide	7 N Nitrogen Nonmetal	71 Lu Lutetium Lanthanide	8 O Oxygen Nonmetal	23 V Vanadium Transition Metal	53 I Iodine Halogen				

15-iyun kuni soat 11:00 da Toshkent kimyo-texnologiya instituti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Biotexnologiyaning zamonaviy muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

<https://youtu.be/x16q0JyPjJc>



Toshkent
kimyo-texnologiya
institutini



ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ КОМИТЕТ ПО ЭКОЛОГИИ И ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ
АГЕНТСТВО ПО РЕГУЛИРОВАНИЮ АЛКОГОЛЬНОГО И ТАБАЧНОГО РЫНКА И РАЗВИТИЮ ВИНОВОДСТВА
ИНСТИТУТ МИКРОБИОЛОГИИ АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН



«EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH HAMDA BIOTEKNOLOGIYANING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI»
Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiya
2022-yil 15-16-iyun

Международная научно-техническая конференция
«СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИИ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И
БИОТЕХНОЛОГИИ»
15-16 июня 2022 года

The international scientific and technical conference
« MODERN PROBLEMS OF ECOLOGY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION AND BIOTECHNOLOGY »
June 15-16, 2022 year



Toshkent 2022



2022- yil 3- iyun kuni TKTI xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Z.A.Babaxanova Amerika Konsulligi tomonidan Bishkekda tashkil etilgan "BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) uchun universitet-hukumat-sanoat " doirasidagi davra suhbatida onlayn tarzda ishtirok etdi. Anjumanda X.Do'smuhamedov nomidagi Atirau universiteti vakillari va 10 ga yaqin xorijiy davlatlardan vakillar ishtirok etishdi.